



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Mamarasulova Dilafuz Rasulovna**

**Samarqand Shahar 48-maktab o'qituvchisi**

***ZAMONAVIY GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 6- sinflar kesimida Shimoliy Amerikaning berilgan mavzularidan hosil bo'lgan o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar yuzasidan dars ishlanma tayyorladim. Ishlanmada o'quvchilar darajasiga mos ravishda har xil "To'g'ri yoki noto'g'ri", "Darajali Assisment", "Jumlani to'ldir", "Hayvonlarni o'z tabiat zonasiga joylashtir", "Qaysi biri ortiqcha", "Geografik diktant", "Besh savolga besh javob", "Qanday diagrammasi", "Xotira mashqi" metodlardan foydalangan holda topshiriqlar tayyorlangan.

**Kalit so'zlar.** Assisment, Hayvonlar, geografiya, shajara, xarita, metod, usul, vosita, resurs.

**Аннотация.** В данной статье в разрезе 6 - х классов я подготовила курсовую по пробелам в знаниях учащихся, сформированным из заданных тем Северной Америки. В разработке использованы различные в соответствии с уровнем учащихся методики "правильно или неправильно", "уровневый Assisment", "завершить предложение", "поселить животных в своей природной зоне", "какой из них лишней", "Географический диктант", "пять ответов на пять вопросов", "схема как", "тренировка памяти задания подготовлены.

**Ключевые слова.** Ассисмент, животные, география, генеалогия, карта, метод, метод, инструмент, ресурс.

**Annotation.** In this article, I have prepared a textbook on the gaps in the knowledge of students formed from the topics given in North America in the 6th grade section. In the study, assignments were prepared using different “correct or wrong”, “level Assessment”, “fill in the sentence”, “place animals in their natural zone”, “which is a plus”, “geographic dictant”, “five answers to five questions”, “What diagram”, “memory exercise” techniques, in accordance with the level of pupils.

**Keywords.** Assessment, animal, geography, genealogy, map, method, method, tool, persons.

**Kirish.** Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq xalq ta’limi sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. O’tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinib, uning talablariga ko‘ra sinovdan o‘tkazilgan “Ona tili” davlat ta’lim standartlari tasdiqlandi va yangi mazmundagi “Ona tili” darsliklari yaratildi. Ona tili o‘qituvchilari pedagogik texnologiya, axborot hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘z faoliyatlarida qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlari kuchaydi., o‘quvchilarning ijodiy ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bosh maqsadga aylandi, o‘qitishning samarali, ayniqsa, noan’anaviy, interfaol metod, vosita va usullarini tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari ortdi. Ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni esda tutishi kerakki, dars o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. O‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga o‘rgatishi lozim. Darsda beshta maqsad ko‘zda tutiladi: ta’lim, tarbiya, rivojlantirish, kasbga yo‘llash va milliylik. Bu beshta maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interfaol usullardan foydalanib dars o‘tish yaqindan ko‘mak beradi. O‘zlashtirilayotgan tajribani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘quvchilarga o‘zaro ta’sir harakati orqali yo‘naltirish, interfaol metodlarni qo‘llab dars o‘tishning asosi bo‘lib, bunday yondashuvda o‘qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o‘quvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi. Hozirgi zamon darsiga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda o‘rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo‘lishidir, ya’ni darsda ko‘zlangan maqsad va o‘quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o‘rganilgan mavzu bilan bog‘lash, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo‘ladigan jihozlarni belgilash va qo‘shimcha ko‘rsatmali qollanma bilan boyitish, interfaol metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyat yaratishdir. Darsga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ta’lim



metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog‘lab olib borish samaradorligini oshirishdir.

*Asosiy qism.* Shimoliy Amerikaning geografik o‘rni , O‘rganilish tarixi , geologic tuzilishi , relyefi , iqlimi , ichki suvlari , tabiat zonalari balandlik mintaqalari, aholisi . Darsda qo‘llanadigan metodlar: “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri “ , “Darajali Assisment “ , Jumlani to‘ldir” , ,”Besh savolga besh javob” , “Qanday diagrammasi” , “Xotira mashqi” usullaridan foydalaniladi.


## To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri?

- 1 Dunyodagi eng katta oroli bor materik . +
- 2 Materik qirg‘oqlarini 4 ta okean suvlari yuvib turadi . ×
- 3 Eng tor joyi Panama kanali kengligi 85 km . ×
- 4 Mezozoy erasining boshlarida Shimoliy Amerika Yevrosiyodan ajralgan . +
- 5 Materikning janubiy g‘arbida dunyodagi eng uzun Flint – Mamont g‘ori bor. +

## To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri?

- 1 Shimoliy Amarika qadimgi Lovraziya materigining bir bo‘lagi +
- 2 Materikning eng baland nuqtasi Mak-Kinli cho‘qqisi . ×
- 3 “Loyqa daryo “ deb Missisipini atashgan (hindular tilida ) . ×
- 4 Kolorado daryosida Katta Kanyon darasi joylashgan . +
- 5 Alyaskadagi Xobbort tog‘ –vodiy muzligining uzunligi 145 km . +

## “Assisment metod” I variant



**Materikda dunyodagi eng katta orol - Grenlandiya oroli bor, maydoni ..... mln kv km Orolning ..... % i muz bilan qoplangan**

**Orol maydoni 2.2 mln km , 80 % muz bilan qoplangan .**

**Test**

1. Shimoliy Amerika materigi maydoni qancha ?  
a. 24 200 000 kmkv , b. 23 200 000km kv  
s. 22 200 000 km kv .
2. Myorcheson burni materikning qaysi chekka nuqtasi ?  
a. shimoliy , b. janubiy , s. g'arbiy .
3. Materikning eng chekka janubiy chekka nuqtasi ?  
a. Maryato , b. Uels Shaxzodasi  
s. Sent –Chartz .
4. Materikning dengiz sathidan eng past nuqtasi ?  
a. Ajal vodiysi -86 m , b. Makkinli -86 m ,  
s. Katta kanyon – 86 m .
5. Yevrosiyodan materkni ajratib turuvchi Bering bo'g'izi kengligi qancha ?  
a. 48 km , b. 85 m , s. 84 m .

**Amaliy topshiriq .**

Shimoliy Amerika 100 grd meridian bo'ylab qancha km cho'zilganligini hisoblab toping ?  
(eng shimoli chekka nuqtasi 79 grd sh.k , eng janubiysi 18 grd sh .k )

Eslatma 1grd merid yoyi uzunligi 111.1 km

**Javob; 79- 18= 61**


**61x 111.1= 6777.1 km**

**Javob;100 grd meridian bo'yicha 6777.1km cho'zilgan .**

**Atamalar bilan ishlash .**

1. Denali
2. Mitchel
3. Loyqa daryo
4. Buyuk ko'llar
5. Xabort

## “Assisment metod” II variant



Eng katta ..... - Kanada  
Arktikasi shu materikka tegishli

Javob ;arxipelag

**Geografik diktant.**

- 1.Materikda nechta iqlim mintaqasi bor ...**6**
- 2.40 sh.k dan Meksika qo'ltig'I oralig'ida qanday iqlim mintaqasi joylashgan .....**subtropik**
3. Makkenzi daryosi qaysi okeanga havzasiga tegishli...**Shimoliy muz**
4. oq yapaloqqush qaysi tabiat zonasida uchraydi .....**Arktika cho'li**
- 5.Qizil olmaxon , burunduq qaysi zonada yashaydi .....**Aralash va keng bargli o'rmon**

**Amaliy topshiriq .**

Materikning eng baland cho'qqisi Denaliga chiqqan alpinistlar qancha masofani ko'rish mumkin?

Javob ; Denali cho'qqisi 6194 m

$H=3.86/6194 = 3.86 \times 78.70 = 303.7 \text{ km}$

Javob alpinistlar 303.7 km ko'ra oladilar

**Atamalar bilan ishlash .**

- 1.Vud – Baffalo
- 2.Mamont
- 3.Indeyeslar
- 4.Bering
- 5.Alyaska

**“BESH SAVOL” o'yini**

*Bu o'yinda – biror harf tanlanadi va shu harf bilan boshlanadigan so'zlarni topib, quyidagi 5 ta savolga javob topish so'raladi ?*







“Xotira mashqi” metodi.

**O’quvchi varianti**

Raqamlar	Izoh
446km	
145km	
500 km	
48 km	
85 km	
6194 m	
2037 m	

**O’qituvchi varianti**

Raqamlar	Izoh
446km	Kolorado kanyoni uzunligi
145km	Xabbort tog’ –vodiy muzligining uzunligi
500 km	Flint- Mamont g’ori uzunligi
48 km	Panama bo’yni kengligi
85 km	Bering bo’g’izi kengligi
6194 m	Denali cho’qqisi balandligi
2037 m	Mitchell cho’qqisi balandligi

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol usullarni qo’llab dars o’tilganda, sinfda qoloq, o’zlashtirmaydigan o’quvchi qolmaydi. O’quvchilar o’rtasida do’stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o’quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. Chunonchi, interfaol usullar ta’lim jarayonida darslarni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga, o’quvchilarning tashabbuskorligiga va yangiliklarni tezkor qabul qilishiga samarali ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o’rganishlariga imkon yaratiladi. Zero, bugungi innovatsion yondashuvlar davrida mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan shaxsgina, o’z mavqeyiga ega bo’ladi va bu o’zi uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo’lib, turli g’arazli oqimlar ta’siriga berilmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abduhakim Qayumov, Iranqul Safarov, Muhabbat Tillaboyeva “Jahon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi”.
2. “Maktabda geografiya” ma’naviy-ma’rifiy, ta’limiy jurnal. 2010 yil 18-son
3. “Qiziqarli geografiya” 2020-yil.
4. Geografiya: qiziqarli ma’lumotlar, tezkor javoblar. Toshkent. 2011.
5. Internet ma’lumotlari [www.arxiv.org](http://www.arxiv.org)